

# Finlandiya Ta'lim Tizimining O'Ziga Xos Xususiyatlari

*Raximova Nuquljon Yusupovna*<sup>1</sup>

**Аннотация:** Maqolamizda Finlandiya ta'lim tizimining boshqa ta'lim tizimlardan farqli jihatlari hamda o'ziga xos xususiyatlar to'g'risida bayon etilgan. Shuningdek, fin ta'lim tizimining samaradorligi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan hamda o'ziga xosligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** fin ta'lim tizimi, Mustaqil ta'lim jarayoni, PISA, PIRLS, TIMSS, Tenglik, Bepul ta'lim, Individuallik, Amaliylik, Ixtiyoriylik, Mustaqillik.

Ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xozirda mamlakatimizda ta'limga qaratilayotgan xarajatlarning ko'p qismini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirmoqda. Asta-sekinlik bilan mamlakatda innovasion iqtisodiyotning taraqqiy etishi, aholi daromadlarining oshishi va ta'lim tizimi inson hayotidagi o'rnining oshib borishi mamlakatda ham asta - sekinlik bilan davr talablariga javob bera oladigan davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda xususiy ta'lim muassasalari ham tashkil topib boradi va bormoqda. Bu o'z navbatida, bevosita raqobatni kuchayishiga, davlatning ta'limga ajratayotgan mablag'larini kamayishiga hamda yangi moliyalashtirish manbalarini izlab topishga olib keladi. Ta'lim tizimini asosiy natijasi, ta'lim oluvchilarning bilim va ijodiy faoliyatini amalga oshirish uchun o'quv jarayonida zamonaviy o'quv texnologiyalaridan foydalanib ta'lim sifatini yanada samaraliroq ortirilishidir. Asosiy e'tibor talabalarni mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish mexanizmlariga qaratilishi lozim. Mustaqil ta'lim jarayonida bilimlar kengayadi, chuqurlashadi, mukammallashadi, turli sharoitlarda ulardan foydalanish imkonini beruvchi universallik xarakteriga ega bo'ladi<sup>22</sup>. Xar tomonlama etuk shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi ta'lim tizimiga ilg'or g'oyalarni tadbiiq etish va shu soxada uning mazmunini 22 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 y. PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2024-yil 24-25-may 56 shakllantirish ijtimoiy zaruriyat xisoblanadi. Ma'lumki, Finlyandiya ta'lim tizimi zamonaviy dunyoda eng samarali tizimlardan biri bo'lib, uning yuqori darajasini ta'minlash mamlakat milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) ma'lumotlariga ko'ra, Finlyandiya ta'limi bir necha yillardan beri jahon reytingida etakchi o'rinlardan (eng yaxshi 10 lik ichida) birini egallab kelmoqda. PIRLSning 2016 yildagi tadqiqoti natijalariga ko'ra (5-o'rin, 566 ball), TIMSS 2019 yil natijalariga ko'ra 19-o'rinni egallab turibdi<sup>23</sup>. Finlyandiyada ta'lim talabalarga yo'naltirilgan yondashuv asosida qurilgan va jarayonning barcha ishtirokchilari o'zlarini teng darajada his qiladigan muhitni yaratishga qaratilgan. Finlyandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998 yil) Finlyandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan: (1) o'quvchilarga hayotda zaruriy bilim va ko'nikmalarni berish, (2) jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish, (3) mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash. Finlyandiya maktablarida haftasiga 5 kunlik o'qish joriy etilgan. Barcha maktablar bir xil mavqega ega, bolalar qobiliyatiga ko'ra turli sinf yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ajratib o'qitilmaydi. Ularda boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi va 3-sinf gacha bolalarga baho qo'yilmaydi, o'qituvchilar tomonidan uyga vazifa deyarli berilmaydi, 2017 yildan aksariyat maktablar dars vaqtida "ruchkadan voz kechishgan" va dars jarayonida to'liq kompyuter va planshetlardan foydalaniladi<sup>24</sup>. Finlyandiya ta'lim tizimi ikki bosqichli ma'muriy tuzilishga ega: Ta'lim va madaniyat vazirligi (Ministry of Education and Culture) hamda vazirlik huzurida faoliyat yuritadigan, lekin o'z faoliyatida mustaqil Milliy ta'lim agentligi (Finnish National Agency for

<sup>1</sup> Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi



Education). Agentlik maktabgacha va maktab ta'limini, vazirlik esa oliy ta'lim tizimini boshqaradi. Ta'lim muassasalarini boshqarish asosan mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi faoliyatiga deyarli hech kim aralashmaydi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir tamoyili bo'lgan ishonch madaniyati tufayli maktablarga tekshiruv tashriflari yo'q. Finlyandiya ta'lim tizimining asosini quyidagi 7 ta tamoyil tashkil etadi: 1. Tenglik - Finlyandiyadagi barcha maktablar o'quvchilarga bir xil sharoit va bir xil ta'lim tizimini taqdim etadi. 2. Bepul ta'lim - bepul ta'lim berish bilan birgalikda o'quvchilarga barcha o'quv jihozlari va tushlik ham bepul taqdim etiladi. 3. Individuallik – darslarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan o'qituvchilar yoki yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar alohida shug'ullanishadi. 4. Amaliylik – o'quvchilarni imtihonga emas balki hayotga tayyorlash. Darslarda o'quvchilar, masalan, viza kartadan qanday foydalanish, shartnomalar tuzish, saytlar yaratish, tikish, ovqat pishirish, marketing va sotuv ishlari bilan shug'ullanish kabi amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar. 5. Iшонch va o'qituvchilar salohiyati – barcha maktablardagi o'qituvchilar magistratura darajasiga ega bo'lishlari shart. O'quvchilarga uy vazifasi deyarli 23 To'rayev R., Abilov S. Professional ta'lim tizimida finlandiya tajribasini qo'llash afzalliklari. Multidisciplinary Scientific Journal. VOLUME 3 | SPECIAL ISSUE 4 | 2024. –P.140. 24 Ibragimov Sh. Finlyandiya va O'zbekistonda ta'lim tizimini sifatini solishtirma taxlili. Miasto Przyszłości Kielce 2022. –P.348. O'zbekiston-Finlandiya ta'limi va barkamol avlod tarbiyasi muammolari 57 berilmaydi, ota-onalar farzandlari bilan uyda shug'ullanmaydi va o'qituvchilarning o'quvchilarni hayotga tayyorlashiga to'liq ishonishadi. 6. Ixtiyoriylik – dars jarayonida qay darajada ishtirok etish o'quvchilar ixtiyorida. O'qituvchilar o'quvchilarni darsga qiziqтира olmasalar o'quvchilar sinfni tark etishi yoki o'zlari yoqtirgan boshqa biror mashg'ulot bilan shug'ullanishlari mumkin. 7. Mustaqillik – fin ta'lim tizimida o'qituvchilar o'quvchilarni imkon qadar o'zlari bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari kerakligiga yo'naltiradi. Bilimlarni hayotda qanday tatbiq etish ko'nikmalari amaliy mashg'ulotlar yordamida shakllantiriladi. O'quvchilarning har qanday fikrlari inobatga olinadi va qo'llab quvvatlanadi. Finlyandiyada o'quvchilar qo'shimcha darslarga qoldirilmaydi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Finlyandiya ta'limining muhim xususiyatlaridan yana biri, maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha to'liq bepul ta'lim olishni ta'minlaydi. Shuningdek, barcha o'quv materiallari, darsliklar, sog'liqni saqlash xizmatlari va maktabga qatnash transport xizmatlari ham bepul amalga oshiriladi hamda boshlang'ich va o'rta ta'limda barcha o'quvchilarga maktablarda bepul tushlik beriladi. Finlyandiyada 9 yillik majburiy ta'lim davomida milliy imtihon yo'q, deyarli barcha o'quvchilar yashab turgan hududiga yaqin maktabga borishadi. Bu erda o'qituvchilarning malakasiga tayanadilar. Finlyandiya ta'limini baholash markazi ta'limdagi baholashni butun mamlakat bo'ylab olib boradi. Finlyandiyada ham o'qituvchilarning salohiyati eng muhim omil hisoblanadi. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi yuqori darajadagi hamkorlik ta'lim tizimining uzluksiz ishlashiga yordam beradi.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibragimov Sh. Finlyandiya va O'zbekistonda ta'lim tizimini sifatini solishtirma taxlili. Miasto Przyszłości Kielce 2022. –P.348.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 y. PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori
3. To'rayev R., Abilov S. Professional ta'lim tizimida finlandiya tajribasini qo'llash afzalliklari. Multidisciplinary Scientific Journal. VOLUME 3 | SPECIAL ISSUE 4 | 2024. –P.140
4. Луман Н.Л. Общество как социальная система. Пер. с нем./ А. Антоновский.- М:Логос.2004.– С.88-94
5. MADATOVICH, RUZIMURODOV SIROJ. "Oilada bolalarni tarbiyalashda sog'lom muhitni shakllantirishning estetik xususiyatlari". JournalNX 6.04 (2020): 88-90.
6. Yaxshilikov, J., and Muhammadiev N. Milliy g'oya. "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi." Toshkent, "Cho'pon (2018).



7. Yaxshilikovich, Y. J. "Information and communication technologies as the main philosophical attribute of an informed society." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 7.7 (2020): 681-686. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2024-yil 24-25-may 58
8. NIZAMITDINOVICH, HAYDAROV ASLIDDIN. "Human and Nature: an Increase in the Level of Production and Consumption." *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology* 7.05 (2020): 278-281.
9. Haydarov, Asliddin Nizamitdinovich. "THE ROLE OF ECONOMIC AND SOCIAL SPHERES IN INCREASING THE LEVEL OF CONSUMPTION OF THE POPULATION." *Theoretical & Applied Science* 8 (2020): 27-29.
10. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." *BARCHA SOHALAR BO'YICHA* (2023): 32.
11. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 4.1 (2024): 22-27.

